

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 75 (1674), 2026-yil 16-aprel, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQLIDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining birinchi o‘rinbosari Sergey Kiriyenko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish doirasida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha yo‘nalishlarda faol muloqotlar olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi barqaror o‘shib bormoqda, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha muhim loyihalar amalga oshirilib, madaniy-gumanitar almashinuv kengaymoqda.

Mamlakatimizda birinchi integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirishga, shuningdek, tinch atom sohasidagi hamkorlikka alohida e‘tibor qaratildi.

Raqamli texnologiyalar, yoshlar va axborot siyosati, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolarning tashabbuslarini rivojlantirish borasidagi o‘zaro hamkorlikni faollashtirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

MILLIY RUH VA OHANG KUYCHISI

Ko‘ksaroy qarorgohida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida milliy estrada san‘atining yorqin namoyandasi, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovning 80 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Davlat va jamoat arboblari, madaniyat va san‘at namoyandalari, ijodkor ziyolilar, “Yalla” ansambli a‘zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etgan tadbirda davlatimiz rahbari so‘zga chiqib, Farrux Zokirovni samimiy qutladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniyat va san‘at sohasi ham tubdan rivojlanib, sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda, shubhasiz, soha rivojiga qaratilayotgan e‘tibor bilan bir qatorda mamlakatimizda 15-aprelning Madaniyat va san‘at sohasi xodimlari kuni etib belgilangani ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kuni kecha yurtimiz bo‘ylab madaniyat va san‘at sohasi xodimlari kuni keng nishonlandi. Davlatimiz rahbarining shu munosabat bilan soha vakillariga yo‘llagan tabrigida so‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha soha qatori madaniyat va san‘at jabhasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, natijada sohaning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanib, xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag‘batlantirilayotgani qayd etilgan bejiz emas.

Milliy estrada san‘atimizning yorqin namoyandasi, O‘zbekiston xalq artisti Farrux Zokirovning 80 yilligi ham ushbu shukhli damlarga to‘g‘ri keldi. San‘at, xususan, musiqa xalqqa o‘zligini anglatish, madaniy qiyofasini butun dunyoga

tanitishga qodir. Bu haqda gap ketganda, albatta, bastakor, ijrochi, xonanda, umuman, soha ustalari faoliyati, iste‘dodi bosh mavzuga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, ilk milliy estrada guruhi sifatida e‘tirof etiladigan “Yalla” ansambli va uning badiiy rahbari Farrux Zokirov faoliyati ortiqcha ta‘rifga muhtoj emas. Zero, elimiz ardo‘g‘idagi san‘atkor 9 davlatning xalq artisti, turkiy ellarning sevimli san‘atkori ekani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Tadbirda “Yalla” ansambli a‘zolari Javlon To‘xtayev, Abbas Aliyev, Temur Xalikov va Igor Xalikovning ham ko‘p yillik samarali faoliyati e‘tirof etildi.

San‘atkor tavalludining 80 yilligi arafasida Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti Farrux Zokirov ijodini keng targ‘ib qilish hamda yosh avlodga munosib yetkazish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinganida ham katta ma‘no bor. Binobarin, “Yalla” guruhi ijro etgan “Yallama yorim”, “Yo‘l bo‘lsin”, “Handalak”, “Majnunol”, “Kelibdi” singari 400 dan ortiq qo‘shiqlari milliy ruh va ohang aks etgani tufayli chinakam xalq san‘ati namunasiga aylandi, milliy madaniyatimiz oltin fondidan joy oldi. “Choyxona”, “Sumalak” kabi qo‘shiqlarda milliy qadriyatlarimiz, “Toshkentim — onam”, “Uchquduq”, “Shahrisabz” kabi xonishlarda esa yurtimizning betakror tarovati mujassam.

Davomi 2-betda

BUTUNJAHON TAEKVONDO FEDERATSIYASI BILAN HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionati doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Butunjahon taekwondo federatsiyasi prezidenti Cho Chung Vonni qabul qildi.

Ta‘kidlash joizki, so‘nggi yillarda yurtimizda taekwondo bilan muntazam shug‘ullanuvchilar soni deyarli ikki baravarga oshib, 35 ming nafarga yetdi. Vakillarimiz Parijdagi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida ushbu sport turi bo‘yicha umumjamoa hisobida faxrli uchinchi o‘rinni qo‘lga kiritishdi.

Uchrashuv davomida Cho Chung Von O‘zbekistonda sportni jadal rivojlantirish, yoshlar orasida jismoniy tarbiyani targ‘ib etish, zamonaviy infratuzilmani yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholadi.

Tomonlar hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, professional sportchilar va hakamlarni tayyorlash, yuqori texnologiyalar, sun‘iy intellekt, sport tibbiyoti borasida ilg‘or tajribalarni almashish va nufuzli xalqaro musobaqalarni O‘zbekistonda muntazam o‘tkazish masalalarini muhokama qildilar.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti mamlakatimizda taekwondoni ommalashtirishga qo‘shgan shaxsiy hisssasi, sport orqali jahon xalqlarining o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik aloqalarini kuchaytirish borasidagi katta xizmatlari uchun Cho Chung Vonni davlatimizning yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirladi.

Cho Chung Von, o‘z navbatida, Prezident Shavkat Mirziyoyevga sportni rivojlantirishga qo‘shgan ulkan hisssasi uchun Butunjahon taekwondo federatsiyasi tomonidan ta‘sis etilgan oliy mukofot — “Shon-sharaf” ordenini topshirdi.

Ushbu orden ilk bor aynan davlatimiz rahbariga taqdim etilgani, bu yurtimizda sportni, xususan, taekvondoni rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning xalqaro miqyosda e‘tirof etilganidan dalolat berishi ta‘kidlandi.

O‘zA

PREZIDENTIMIZ JAVOHIR SINDOROVNI TARIXIY G‘ALABAGA ERISHGANI BILAN TABRIKLADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro shaxmat federatsiyasining Nomzodlar turniri g‘olibi Javohir Sindorov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari yosh grossmeysterimizni O‘zbekiston shaxmat tarixida birinchi marta mazkur nufuzli musobaqada zafar qozonib, tom ma‘nodagi tarixiy g‘alabaga erishgani bilan samimiy tabrikladi.

Suhbatda Javohir Sindorov ushbu turnirda ilgari hech kim yeta olmagan yuksak marrani zabt etgani, 13 ta o‘yinda 6 marotaba g‘alaba qozongan sport olamida kamdan-kam uchraydigan noyob hodisa ekani alohida ta‘kidlandi.

Davlatimiz rahbari yosh grossmeyster dunyoning eng dongdor shaxmatchilariga qarshi har bir bahsda katta jasorat va mahorat bilan dona surib, kuchli iroda, yuksak intellektual salohiyat va qat‘iyat fazilatlarini namoyon etganini qayd etdi.

Prezidentimiz endi Javohir Sindorov oldida jahon toji uchun hal qiluvchi va

sharafi bellashuv turganini qayd etib, bo‘ljak o‘yinlarda unga yanada ulkan omad, kuch-g‘ayrat va yangi zafarlar tiladi.

Suhbatda joriy yil Samarqand shahrida o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida Javohir Sindorovning ishtiroki, shubhasiz, jamoamizga katta ruh va ishonch bag‘ishlashi qayd etildi.

Fursatdan foydalanib, davlatimiz rahbari Javohir Sindorovning ota-onasi, yaqinlari, ustoz va murabbiylarini ham ushbu tarixiy g‘alaba bilan chin yurakdan tabrikladi.

Javohir Sindorov yuksak e‘tibor, samimiy qutlov va bildirilgan ishonch uchun Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O‘zA



O‘ZBEGIMNING TEMURBEKLAR MAKTABI BOR

Kimning umr, kimning hayot maktabi bor, Unday zotning hayotsevar matlabi bor, Yurtboshimiz olam ahlin qildi iqror — Xush niyatli xalqqa doim Yaratgan yor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Bu maktabning tamal toshi yetti asr, Qadriyatlar qo‘rg‘onida yetti qasr, Tolibida bobomeros qudrat zohir, Yo‘q yog‘dudan yorishmaydi dunyo zinhor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Urush bilan bu olamni olib bo‘lmas, Zo‘rlilik ila dilga mehr solib bo‘lmas, Sotqin kaslar ikki dunyo g‘olib bo‘lmas, Vafo dilda, shukri tilda bo‘lsin takror, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Tandir bilan olov — asli non diydori, Osmon bilan Yer arosi — jon diydori, Amur Temur adolati — shon diydori, Ustoz ko‘rgan shogird aslo bo‘lmagay xor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Bu besh maktab, besh barmoqning birlashmog‘i, Bu davrning talabidir, ham so‘rog‘i, Birlashganning charaqlagay dil chirogi, Yuzlab yurtdar Yer yuzida shul nurga zor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Mardlar shaksiz yurt qadriga qalqon bo‘lgay, Qalqonlari or-nomus-u vijdon bo‘lgay, Bu maktablar shu niyatga imkon bo‘lgay, O‘g‘lonlarki, har bittasi safdagi nor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Bobomizdir Sohibqiron — sohibdavlat, Kunlar keldi — dunyo undan olur ibrat, Kuch bilakmas, adolatda, degan hikmat, Avlodlari unutmagay buni zinhor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Din — diyonat, dunyo ilmi — siyosatda, Bu o‘g‘lonlar qolmagay hech xijolatda, Joynamozi momo Yerdar, ibodatda, Sharaf ila tiz cho‘kkaydir, joni nisor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Besh maktabning beshta tog‘i — O‘zbekiston, Til chirogi, dilda bog‘i — O‘zbekiston, Boshi uzra hur bayrog‘i — O‘zbekiston, Hur niyati, hurriyati o‘ziga yor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

El mehridan to‘shak solib, to‘shak yig‘ar, O‘zbekiston bag‘riga bor olam sig‘ar, Faqat tinchlik istagan har odam sig‘ar, Amir Temur yo‘lin tutar oqil Sardor, O‘zbeginning Temurbeklar maktabi bor.

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ ARTISTI FARRUX ZOKIROV IJODINI KENG TARG‘IB QILISH HAMDA YOSH AVLODGA MUNOSIB YETKAZISH TO‘G‘RISIDA

Butun umrini san‘atga baxshida etib kelayotgan, o‘zbek milliy estradasini dunyoga tarannum qilib, yurtimizning madaniyati va san‘ati nufuzini yuksaltirishga beqiyos hissa qo‘shayotgan, serqirra faoliyati xalq o‘rtasida ma‘naviy ko‘prik bo‘lib xizmat qilayotgan ustoz san‘atkor — O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti Farrux Zokirov ijodini keng targ‘ib qilish va yosh avlodga munosib yetkazish maqsadida qaror qilaman:

1. Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 7-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabiga (keyingi o‘rinlarda — Maktab) Farrux Zokirov nomi berilsin.

Davomi 2-betda



MILLIY RUH VA OHANG KUYCHISI

Boshlanishi 1-betda

Mazkur qarorga muvofiq, san'atkorning boy ijodiy merosini keng targ'ib qilish hamda yosh avlodga yetkazish maqsadida poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabiga Farrux Zokirov nomi berilishi belgilandi.

Albatta, maktabga nom berish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Qarorga binoan maktabda "Yalla" nomidagi bolalar ansambli faoliyati yo'lga qo'yiladi. Yoshlar ijodiy laboratoriyasi hamda "ustoz-shogird" an'analari asosida estrada yo'nalishi bo'yicha ijrochilik mahorati maktablari tashkil etiladi. Maktab badiiy-pedagogik kengashi qarori bilan tashkil etilgan mahorat maktabining ustoz ijodkorlari davlat byudjeti hisobidan har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida rag'batlantirib boriladi.

Yoshlar ijodiy laboratoriyasi doirasida esa 2026/2027-o'quv yilidan boshlab hududlardagi musiqa va san'at maktablarining iqtidorli o'quvchilari ta'til davrida ushbu maktabdagi yozgi to'garakka jalb etilib, estrada xonandaligi bo'yicha maxsus bepul kurslarda o'qitilishi belgilandi.

Bundan tashqari, ushbu maktabda 2026/2027-o'quv yiliga zamonaviy ovoz yozish va tasvirga olish studiyasi tashkil etiladi hamda sahna jihozlari va liboslari bilan ta'minlanadi.

Umuman olganda, qaror Farrux Zokirov va u rahbarlik qiladigan "Yalla" guruhining boy ijodiy merosini targ'ib qilish bilan birga yosh avlodga san'atning ushbu yo'nalishi sir-asrorlari, ilmini chuqur o'rgatishga zamin hozirlaydi.

Guruhning ijodiy yo'lga ko'plab san'atkorlar havas qiladi. U tufayli yurtimizda estrada san'ati ancha rivojlandi. Ko'plab mamlakatlar aholisi "Yalla" bois yurtimizni tanidi, ajoyib san'atimizdan xabar topdi. Qadriyatlarimiz, milliy an'alarimizdan bahramand bo'ldi.

"Yalla" deganda Farrux Zokirovni, Farrux Zokirov deganda esa "Yalla"ni tushunadigan yurtdoshlarimiz bu nomlarni eshitganida yuragi

ajib iftixor, g'ururga to'lishi ham ayni haqiqat. Guruh dunyoga tanilgan bo'lsa-da, tom ma'noda O'zbekistonni, o'zbek xalqiniqidir. Tug'ilishidan tortib, nomi qo'yilishigacha chin ma'noda xalqonaligi ko'zga tashlanadi. Guruh repertuaridagi qo'shiqlar rang-barang: ular nafaqat janr, qolaversa, yo'nalish jihatidan ham bir-birini takrorlamaydi. Xalqona ohanglardagi kuy-qo'shiqlar haqiqatan ham nomiga mos: u elimizning "Yalla"si.

Farrux Zokirov va "Yalla" ansamblining hayotsevar, teran san'ati yoshlarga Vatanni, do'stlikni sevish, dunyoni yorug' ranglarda tasavvur qilishni o'rgatadi. Bugungi keskin pallada insonni olijanob ruhda tarbiyalaydi. Axir, san'atning ulug'vor va bosh vazifasi ham shunda-ku!

Ustoz san'atkor Farrux Zokirov va "Yalla" ansambli o'zining betakror ijrosi, teran o'zbekona ma'naviyati, xalqimiz, milliyligimiz, sahnaga, muxlislarga muhabbati va sadoqati tufayli yillar osha yuksak darajada ijod qilib kelmog'ida. Biz jahon musiqa yulduzlarining qo'shiqlarini har qancha tinglamaylik, olqishlamaylik, baribir Farrux Zokirov va "Yalla" ansamblining o'rni boshqacha.

San'at, iqtidor egalari, ma'naviyat taratuvchilar doim davlatimiz e'tiborida. Ularning yorqin iste'dodi, yuksak professional mahorati, samarali ijodiy faoliyati, o'zbek san'atini rivojlantirish, shon-shuhratini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar, o'zaro do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qo'shib kelayotgan katta hisssasi munosib e'tirof etiladi.

Farrux Zokirovning ko'p yillik samarali mehnati, milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish yo'lidagi fidokorona xizmatlarini munosib taqdirlash maqsadida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan alohida farmon ham bunga yorqin misol.

Tadbirda davlatimiz rahbari Farrux Zokirovga "Buyuk xizmatlari uchun" ordenini tantanali topshirdi.

Avazbek XUDOYQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ ARTISTI FARRUX ZOKIROV IJODINI KENG TARG'IB QILISH HAMDA YOSH AVLODGA MUNOSIB YETKAZISH TO'G'IRISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. Farrux Zokirov nomidagi 7-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish va yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha badiiy-pedagogik kengash tashkil etilsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar:

a) Maktabda:

(i) "Yalla" nomidagi bolalar ansambli faoliyati tashkil etilsin;

(ii) Yoshlar ijodiy laboratoriyasi hamda "ustoz-shogird" an'analari asosida estrada yo'nalishi bo'yicha ijrochilik mahorat maktablari tashkil etilsin;

(iii) Maktab badiiy-pedagogik kengashi qarori bilan tashkil etilgan mahorat maktabining ustoz-ijodkorlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 5 baravari miqdorida rag'batlantirib borilsin;

b) Yoshlar ijodiy laboratoriyasi doirasida:

(i) 2026/2027-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 3 nafardan bolalar musiqa va san'at maktabining iqtidorli o'quvchilaridan iborat guruh shakllantirilib borilsin hamda ta'til davrida yozgi to'garakka jalb etilib, estrada xonandaligi bo'yicha maxsus bepul kurslarda o'qitilsin;

(ii) 2026/2027-o'quv yiliga qadar zamonaviy ovoz yozish va tasvirga olish studiyasi tashkil etilsin hamda u sahna jihoz va liboslari bilan ta'minlansin;

(iii) Maktab va yozgi to'garakka jalb qilingan o'quvchilarning ijod namunalari televideniye hamda xalqaro onlayn platformalarda namoyish etib borilsin;

v) Yoshlar ijodiy laboratoriyasini tashkil etish, uni jihozlash va hududlardan o'quvchilarni yozgi to'garakka jalb etish, shu jumladan, ularning yashash, ovqatlanish va transport xarajatlari to'liq Davlat byudjetidan qoplasin;

g) har yili Maktab va yozgi to'garakning iqtidorli 5 nafar o'quvchilari hamda ularning o'qituvchi va

konsertmeysterlarining nufuzli xalqaro tanlovlarda ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlar Davlat byudjetidan qoplasin. Bunda ushbu tanlovlar ro'yxati Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

d) 2026-2027-yillarda tajriba-sinov tariqasida xalqaro nufuzli tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lgan Maktab va yozgi to'garak o'quvchilari (jamoalari) hamda ularni tayyorlagan o'qituvchi (konsertmeyster) quyidagi miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirilsin:

(i) "Gran-pri" va 1-o'rin sohibi 30 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 20 million so'm miqdorida;

(ii) 2-o'rin sohibi 20 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 10 million so'm miqdorida;

(iii) 3-o'rin sohibi 10 million so'm, o'qituvchi (konsertmeyster) 5 million so'm miqdorida;

j) ushbu bandeda nazarda tutilgan xalqaro nufuzli tanlovlarning g'olib va sovrindorlari hamda ularning o'qituvchi (konsertmeyster)larini rag'batlantirish tartibi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlansin, shuningdek, 2027-yil yakunida mazkur amaliyotni respublika bo'yicha keng joriy etish yuzasidan taklif kiritilsin;

z) umumxalq bayram dasturlari va yuqori darajadagi anjumanlarning badiiy qismida Maktab va yozgi to'garakning iqtidorli o'quvchilari hamda ijodiy jamoalarining ishtirok etishiga shart-sharoitlar yaratilib, qo'llab-quvvatlansin;

i) Maktabda a'lo baholarga o'qiyotgan o'quvchilarning 10 nafarini Maktab badiiy-pedagogik kengashi qarori bilan Madaniyat vazirligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi hamda

maktab-internatlariga imtihonlarsiz qo'shimcha kvota asosida qabul qilish tartibi joriy etilsin.

4. Madaniyat vazirligi:

a) Maktabda "ustoz-shogird" ijrochilik mahorat maktablarini tashkil etishda milliy estradamizning yorqin namoyandalarini jalb etsin hamda ularning samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin;

b) Maktabni zarur musiqa cholg'u asboblari, zamonaviy jihoz va texnikalar, shuningdek, musiqa darsliklari va notalar to'plamlari bilan ta'minlansin;

v) Farrux Zokirov ijro dasturi to'liq notalashtirilishi va ularning to'plamlari chop etilishi hamda respublika miqyosida ta'lim jarayonlariga keng tatbiq etilishini ta'minlansin;

g) Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda Maktab binosini kapital ta'mirlash va hududini obodonlashtirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqsin hamda 2026-yil yakuniga qadar qurilish-ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkatsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi qarorda belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun Madaniyat vazirligiga 2026-yilda Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan 10 milliard so'm ajratsin, 2027-yildan boshlab zarur mablag'larni Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib madaniyat vaziri O.A.Nazarbekov belgilansin.

7. Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 15-aprel



San'atimiz darg'alari

YURT ISHQIDA YONISH BAXTI

O'zbek milliy qo'shiqchilik san'atining ulkan rivojida Zokirovlar sulolasining beqiyos xizmatlari bor. Sulolaning sardori — O'zbekiston xalq artisti Karim Zokirov mumtoz qo'shiqlar ijrochisi, shu bilan birga, mashhur opera xonandasi sifatida ham taniqli bo'lgan. Uning rafiqasi Shohista Saidova esa Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatrida aktrisa va xonanda bo'lib ishlagan. U tomoshabinlar e'tirof etgan ko'pgina mashhur spektakllarda asosiy rollarni yuksak mahorat bilan ijro etish barobarida laparlarni ham mohirona kuylagan.

Oilaning olti farzandi ham san'at yo'lini tanladi. To'ng'ich farzand — O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov o'zbek milliy estradasi asoschisi va afsonaviy san'atkori sifatida dunyoga tanildi.

Yana bir iste'dodli farzand, O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov ham otasi va akasi izidan borib, mashhur san'atkorlar safidan munosib o'rin oldi. Bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki dunyoning ko'pgina davlatlarida yaxshi tanish bo'lgan, qo'shiqlarini muxlislari sevib tinglaydigan "Yalla" ansambli va uning mashhur xonandasi Farrux Zokirovni kim bilmaydi deysiz?! "Yalla" deyilishi bilan muxlislar ko'z oldiga Farrux Zokirov keladi yoki Farrux Zokirov nomi aytilishi bilan darhol "Yalla"ni eslaymiz. Bu ansambлга 1971-yilda asos solingan bo'lib, unda o'z ijodiy faoliyatini boshlagan xonanda Farrux Zokirov 1976-yildan buyon ansamblning tolmas va fidoyi rahbari bo'lib kelayotir.

Ansambl repertuariga e'tiborsangiz, undan "Yallama yorim", "G'ayra-g'ayra", "Yo'l bo'lsin", "Handalak", "Qilpillama", "Majnunol", "Qarg'alar" singari xalq qo'shiqlari o'rin olganini ko'rasiz. Bu qo'shiqlar yillar davomida xalqimiz tomonidan turli yo'nalishlarda ijro etib kelingan bo'lsa-da, "Yalla" ansambli ijodkorlari ularni qayta ishlab, estrada yo'nalishida yuksak mahorat bilan kuyladi va muxlislarni hayrat va hayajonga soldi. Eng muhimi, ular xalqimizning quvonch va armonli qo'shiqlarini dunyo ahliga manzur qildi.

— Sumalakning mazasi, bebaho ta'mi bolaligidan og'zimdagi qolgan. Rahmatli onam bu taomni juda yaxshi ko'rardi, —



deb eslaydi Farrux Zokirov. — Uyimizda ham mazali sumalaklar pishiriladi edi. "Sumalak, sumalak, sumalak suzing, ona" qo'shig'i onamning mehr va yaxshi niyatlar bilan qozon to'la sumalakni kovlagani, ayollarning xirgoyisi hamda xalq qo'shiqlarini zavq bilan tinglaganim bois, bolaligidan qalbimda uyg'ongan hisslarning yorqin ifodasidir.

Xonanda repertuaridan mustahkam o'rin olgan har bir dilbar qo'shiqning o'z yaratilish tarixi bor. Farrux Zokirovning ovozi yoqimli va shirali bo'lib, so'zlar va ohanglar bir-birini to'ldirgan holda tinglovchi yuragiga yetib boradi. So'z bilan ohang bir-biriga payvand bo'lib ketgandagina muxlis qalbini zabt etadigan hayratli qo'shiq tug'iladi. Masalan, san'atkor "Toshkentim — onam" qo'shig'i haqida bunday deydi:

— Bu qo'shiq ham bejiz yozilmagan. Muxlislar mendan "Vatanparvarlik haqidagi qo'shiqlaringizning ommalashish siri nimada?" deb so'raydi. Har bir qo'shiqning o'z tug'ilish va yaratilish guvohnomasi bor. Masalan, shinavandalar konsertlarimizda qayta-qayta so'raydigan "Uchquduq", "Shahrisabz", "O'zbekiston — Vatanim" singari taronalimiz ona Vatanimizga bo'lgan yuksak mehr-muhabbatning ifodasi sifatida yozilgan. Bir gapni ochiq aytay: ushbu qo'shiqlarni kuylaganimda yuragimning tub-tubida qandaydir olov yonib turadi va ularni o'zim ham o'z-gacha zavq bilan ijro etaman. Bular shunchaki balandparvoz gaplar emas, balki yuragimdan chiqayotgan samimiy dil so'zlarim, beg'ubor tuyg'ularimdir. Masalan, "Toshkentim — onam"

qo'shig'ini faqatgina o'zim poytaxtda tug'ilganim uchungina emas, balki dunyoning ko'plab mamlakatlari va shaharlarida yashovchi turli millat vakillari ham Toshkentni yaxshi ko'rishlariga ko'p bor guvoh bo'lganim uchun rohatlanib kuylayman. Axir Toshkentni sevmay, ardoqlamay bo'ladimi?! Toshkent dovrug'ini yana bir bor dunyoga yoygan Islom sivilizatsiyasi markazini ko'rish uchun turli mamlakatlardan kelayotgan sayyohlar oqimi kundan kunga ko'payib borayotgani ham Toshkentga bo'lgan mehr va sog'inchni namoyon etib turibdi. Endilikda jonajon poytaxtimiz dunyoning Rim, Parij, Qohira, Tokio va Pekin singari mashhur shaharlari safidan munosib o'rin olayotgani qalblarimizni faxr va g'ururga to'ldiradi.

Bugungi kunda o'zining muborak 80 yoshini kutib olayotgan mashhur san'atkor Farrux Zokirov bir gapni ko'p takrorlaydi: "Do'stlarim, hamkasblarim va muxlislaringim dil so'zlarini, yaxshi niyatlarini aytib, kamtarin ijodimga baho berganlarida: "Bu Karim Zokirovning o'g'li. Barakalla, ota o'g'li!" degan ta'rifni eshitish men uchun eng yuksak bahodir. Botir akam esa — mening ijodiy vijdonim. Har gal yangi qo'shiq yaratayotganimda, "Botir Zokirov qanday fikr bildirar edi?" degan sergak xayol meni hech qachon tark etmaydi".

Farrux Zokirov ustozlari — otasi Karim Zokirov, onasi Shohista Saidova hamda akasi Botir Zokirov bilan bog'liq o'lmas xotiralar yodi-la yashaydi va ulardan doimo ruhiy madad oladi. U Karim Zokirov va Shohista Saidova ekip ketgan qo'shiq chinorining yanada mustahkam ildiz otishini, kelajak avlodlarni ham hayrat va hayajonga solishini juda-juda istaydi.

Shu o'rinda bir voqea yodimga tushdi. 2020-yil davlatimiz rahbarining "O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorini qo'llab-quvvatlash maqsadida Farrux Zokirov bilan teledeniyege bordik. Biz bir-birimizni ovoz chiqarib tabriklamadik, aksincha, bir-birimizni bag'rimizga bosib yig'ladik. Bu Botir Zokirovning tavallud kunini nishonlashdek orzuning o'ttiz besh yillik orziqib kutilgan sevinch yoshlari edi. Bu Botir Zokirov haqiqati edi. Davlatimizning Zokirovlar sulolasining buyuk xizmatlariga ko'rsatilgan yuksak ehtiromi edi.

Ashurali JO'RAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

O'ZBEK MUSIQASI DUNYO SAHNALARIDA AKS SADO BERMOQDA



Faxr

Rustam ABDULLAYEV,
O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi

Bugun yurtimizda san'at va madaniyat sohasiga e'tibor har qachongidan ham yuksak deb bemaol ayta olishimiz mumkin. Buni mamlakatimiz yetakchisining nodir san'at namunalari qadr-qimmatini teran anglashi hamda ijodkorlarga ulkan mehr-muhabbati natijasi deb bilaman.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi sifatida bugun sohadagi islohotlarni, zamonaviy talablar asosidagi yangilanishlarni chuqur his qilib turibman. Uyushmamizga tashrif buyursangiz, u yerda erkin ijod qilish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni, qulay muhit va

kompozitorlarimiz o'zbek musiqa san'atini xalqaro sahnalarda baralla tarannum etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda o'zbek musiqa san'ati namunalari G'arbu Sharqning turli sahnalariga olib chiqilmoqda. Birgina misol: yaqinda, 9-aprel kuni "Musikverein" san'at maskani sahnasida Sohibqiron Amir Temur bobomizning 690-yillik tavallud sanasiga bag'ishlangan musiqali opera asari taqdimoti o'tkazildi. Bularning barchasi bizga faxr-iftixor bag'ishlaydi. Bilasizmi, madaniyat va san'at rivojlangan joyda hayot o'zgaradi, odamlarning dunyoqarashi, o'y-

"Madaniyat va san'at sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanib, xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag'batlantirilmog'ida. So'nggi yillarda yurtimizda 2 ta teatr, 19 ta madaniyat markazi, 16 ta muzey, 20 ta musiqa va san'at maktabi hamda ushbu yo'nalishda 5 ta oliyog'oh tashkil etildi.

turli musiqa cholg'u asboblari ko'rib, ruhlanib ketasiz. Ilhomingiz jo'shib, qanday qilib musiqa yaratganingizni o'zingiz ham sezmay qolasiz.

Madaniyat va san'at sohasining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanib, xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag'batlantirilmog'ida. So'nggi yillarda yurtimizda 2 ta teatr, 19 ta madaniyat markazi, 16 ta muzey, 20 ta musiqa va san'at maktabi hamda ushbu yo'nalishda 5 ta oliyog'oh tashkil etildi.

Bu oliyog'ohlarda tahsil olayotgan iste'dodli, salohiyati baland yosh bastakor va

fikrlari yangilanadi. Prezidentimizning yangi O'zbekistonni barpo etishdek bunyodkorlik g'oyasi insonlar qalbiga san'at orqali kirib boradi. Bu esa biz — soha vakillariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Prezidentimiz kasb bayramimiz munosabati bilan yo'llagan tabrigida soha vakillarini qutlash bilan birga o'zbek san'atining kelgusi istiqboli borasida ham fikrlarini bayon etdi. Biz milliy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqish yo'lida ijodimiz va fidokorona mehnatimiz bilan xizmat qilamiz.



Natijaga yo'naltirilgan islohotlar

YANGI O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMI: RAQOBATBARDOSH TIZIMGA YO'L



Qo'ng'irovboy SHARIPOV,
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vaziri

**ISLOHOTLAR DOIRASIDA
MAMLAKATIMIZ OLIY TA'LIM
TIZIMINI XALQARO MAYDONGA
OLIB CHIQISH, O'ZBEKISTONNI
MINTAQADAGI NUFUZLI TA'LIM
MARKAZIGA AYLTANTIRISH
USTUVOR VAZIFALARDAN BIRI**

**SIFATIDA BELGILANMOQDA. BU YO'NALISHDAGI SA'Y-
HARAKATLAR YURTIMIZNING OCHIQLIK SIYOSATI,
INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA TA'LIM SIFATINING O'SIB
BORAYOTGANINI DUNYOGA NAMOYON ETYAPTI.**

**Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
sohasi izchil yangilanib bormoqda — bu o'zgarishlar kundalik
hayotimizda ham, kelajakka ishonchimizda ham yaqqol namoyon
bo'lmoqda. Bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar zamirida
inson kapitaliga sarmoya kiritish, intellektual salohiyatni
yuksaltirish va ilm-fanni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga
aylantirishdek ulkan maqsadlar mujassam.**

Prezidentimizning "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni esa ushbu jarayonlarga yanada kuchli sur'at baxsh etadi. Mazkur hujjat sohadagi islohotlarni izchil davom ettirib, oliy ta'lim va ilm-fanni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

liy tadqiqot universitetlarini shakllantirishdir. Bu tashabbus orqali mamlakatimizda ilmiy salohiyatni birlashtirish, ta'lim va tadqiqotni uyg'unlashtirish hamda universitetlarni global ilmiy makonning faol ishtirokchisiga aylantirish maqsad qilingan.

Besh tayanch tamoyil

Islohotlar markazida "5 T" tamoyili — ta'lim, tarbiya, tadqiqot, tijoratlashtirish va tizimli takomillashtirish ustuvor o'rin tutadi. Bu yondashuv oliy ta'lim tizimiga mutlaqo yangi mazmun bag'ishlaydi. Endilikda universitetlar bilim beruvchi muassasa bo'lish bilan birga yosh avlodning dunyoqarashi, mas'uliyati va ijtimoiy faolligi oshirishga xizmat qiladigan muhit sifatida shakllanadi.

Ta'lim zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berishni anglatga, tarbiya yoshlarida vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va qadriyatlariga sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot esa universitetlarning ilmiy salohiyatini oshirish, yangi bilim va yechimlar yaratishga yo'naltirilgan. Bunda xalqaro ta'lim va ilmiy dasturlarda faol ishtirok etish, ilg'or xorijiy tajribani joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng muhim yangiliklardan biri — tijoratlashtirish tamoyili. U ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, innovatsiyalarni iqtisodiyotga olib kirish va ulardan qiymat yaratishni nazarda tutadi. Ayniqsa, hududlardagi dolzarb muammolarga yechim bo'ladigan amaliy loyihalarni ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida o'z o'rnini topish, bitiruvchilar bandligini ta'minlash masalasi ustuvor vazifaga aylanmoqda. Tizimli takomillashtirish esa ushbu jarayonlarning barchasini uzviy va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu yondashuv oliy ta'limni faqat bilim berish tizimi doirasidan chiqarib, uni mamlakat taraqqiyotining muhim drayveriga aylantiradi. Endi universitetlarda yaratilgan ilmiy g'oyalarni laboratoriyalarda qolib ketmaydi, balki ishlab chiqarishga, biznesga va jamiyat hayotiga kirib boradi.

Eng muhimi, universitetlar endilikda ilmiy g'oyalarni shakllanadigan, startaplar paydo bo'ladigan, innovatsiyalar tijoratlashtiriladigan va iqtisodiyotga real hissa qo'shadigan zamonaviy intellektual markazlarga aylanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash, ularni ilmiy izlanish va yangilik yaratishga undash, eng asosiysi, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishga zamin yaratadi.

"U-10": Milliy tadqiqot universitetlari

Yangi tizimning eng muhim va strategik yangiliklaridan biri "U-10" loyihasi doirasida milliy tadqiqot universitetlarini shakllantirishdir.

"U-10" doirasida ilmiy tadqiqot faoliyati ustuvor bo'lgan, yuqori intellektual muhitga ega, innovatsiya yaratishga qodir zamonaviy universitetlar tanlab olinadi. Ular faoliyatining asosini ilmiy klasterlar tashkil etadi. Ya'ni bir universitet atrofida mahalliy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, ilmiy tashkilotlari, sanoat korxonalari va biznes subyektlarini birlashtirgan yagona ekotizim vujudga keladi.

Bunday yondashuv ilmiy g'oyalarni tezkor ravishda amaliyotga joriy etish, ishlab chiqarish bilan ilm-fan o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlash imkonini beradi. Eng muhimi, tadqiqot natijalari laboratoriya doirasida qolib ketmay, iqtisodiyot tarmoqlariga taqib etiladi.

"U-10" universitetlari nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bu esa qo'shma ta'lim dasturlari, ikki diplomli tizimlar, xalqaro ilmiy loyihalar va akademik almashinuvlarni kengaytirishga yo'l ochadi. Natijada milliy universitetlarimiz xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash, eng ilg'or ta'lim va tadqiqot standartlarini joriy etishga erishadi.

Mazkur universitetlar davlat tomonidan kuchli moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Ilmiy klasterlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalarga yirik hajmda mablag' ajratilishi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilishi, iqtidorli olimlar va yosh tadqiqotchilarni jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

"U-10" nafaqat universitetlarni rivojlantirish loyihasi, balki butun bir ilm-fan va innovatsiya ekotizimini shakllantirish modeli hisoblanadi. Ushbu tizim orqali O'zbekistonda kuchli ilmiy maktablar paydo bo'ladi, yangi avlod tadqiqotchilari shakllanadi.

Shu tariqa "U-10" loyihasi mamlakatimizni Markaziy Osiyoda ta'lim va ilm-fan markaziga aylantirish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Endi faqat reja bajarish emas...

2027-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida mutlaqo yangi yondashuv joriy etiladi. Bu universitetlar faoliyatini samaradorlik, sifat va aniq natijalarga bog'lashga qaratilgan tizimli islohotdir.



Oliy ta'lim muassasalari milliy reyting asosida baholanadi. Ushbu reytingda universitetlarning o'quv jarayoni, ilmiy salohiyati, xalqaro faolligi, raqamlashtirish darajasi, shuningdek, bitiruvchilarning mehnat bozorida o'z o'rnini topish, shunchalik yuqori baholanadi.

Shunga mos ravishda moliyalashtirish ham differensial tarzda amalga oshiriladi. Yuqori natija ko'rsatgan, samarali faoliyat yuritgan universitetlar ko'proq moliyaviy rag'batga ega bo'ladi. Bu esa resurslarni adolati taqsimlash, ularni eng samarali ishlayotgan muassasalariga yo'naltirish imkonini beradi.

Jahon talablariga mos

Islohotlar doirasida mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini xalqaro maydonga olib chiqish, O'zbekistonda mintaqadagi nufuzli ta'lim markaziga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar yurtimizning ochiqlik siyosati, intellektual salohiyati va ta'lim sifatining o'sib borayotganini dunyoga namoyon etyapti.

Shu maqsadda "Study in Uzbekistan" platformasi yanada takomillashtirish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. Mazkur platforma xorijlik abituriyentlar uchun mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga kirish jarayonlarini soddalashtiradi, ularga qulay va shaffof qabul imkoniyatlarini yaratadi. Eng muhimi, universitetlarga xorijlik talabalarni mustaqil qabul qilish vakolati berilishi ularning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi, ta'lim dasturlarini jahon talablariga mos ravishda takomillashtirishga turki beradi.

Har yili 500 nafargacha iqtidorli xorijlik talaba uchun grantlar ajratilishi ko'zda tutilmoqda. Bu mamlakatimiz ta'lim muassasalariga

energiya, qishloq xo'jaligi, sanoat, axborot texnologiyalari kabi tarmoqlarda ilmiy yechimlarni jadal joriy etishga xizmat qiladi.

Moliyalashtirish tizimining ochiq va natijaga bog'liqligi ta'minlanmoqda. Loyihalar belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlariga erishgan taqdirda moliyalashtirish davom etiriladi. Bu esa har bir ilmiy jamoani mas'uliyat bilan ishlash, aniq natijaga erishishga undaydi. Umumman olganda, ushbu yondashuv ilm-fanni iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylantirishga zamin yaratadi.

Raqamlashtirish va zamonaviy infratuzilma

Farmonda raqamlashtirish masalasiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi zamonda raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, boshqaruvni samarali tashkil etish va inson omili ta'sirini kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida zamonaviy raqamli infratuzilmalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Jumladan, "Karyera" platformasi ishga tushirilishi bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashda mutlaqo yangi yondashuvni joriy etadi. Ushbu platforma orqali talabalarning bilim va ko'nikmalari, qiziqishlari hamda mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasida samarali bog'liqlik ta'minlanadi. Bu esa bitiruvchilarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

"Talabning raqamli pasporti" joriy etilishi har bir talaba haqidagi barcha ma'lumotlar — o'qish ko'rsatkichlari, faolligi, yutuqlari va ko'nikmalarini yagona tizimda jamlash imkonini beradi. Bu ma'lumotlar ta'lim sifatini tahlil qilish, individual yondashuvni kuchaytirish va talablarini rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Shu bilan birga, barcha elektron xizmatlarni birlashtiruvchi yagona ta'lim portalini yaratish rejalashtirilgan. Ushbu platforma orqali talabalar, professor-o'qituvchilar va ta'lim muassasalarini o'rtasidagi o'zaro aloqalar soddalashtadi, xizmatlar "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatiladi. Bu esa vaqt va resurslarni tejash, ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish — sun'iy intellekt asosida baholash tizimlarini joriy etish-

dir. Bu orqali bilimlarni baholash jarayonida xolislik, aniqlik va shaffoflik ta'minlanadi, inson omili bilan bog'liq subyektivliklar bartaraf etiladi. Ayni paytda masofaviy ta'limni yanada takomillashtirish, uning sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Talaba — e'tibor markazida

Amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim va ustuvor jihati inson omiliga, ya'ni talabaga qaratilayotgan e'tiborning keskin ortishidir. Yangi yondashuvda talabaga faqat ta'lim jarayoni ishtirokchisi emas, balki butun tizimning markaziy figurasini sifatida qaralmoqda.

Endilikda ta'lim jarayoni talabning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Baholash tizimi ham aynan shu mezonlarga asoslanadi, ya'ni yodlash emas, balki tushunish, fikr yuritish va yechim topish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarni tayyor bilim iste'molchisidan mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor shaxsga aylantirishga imkon beradi.

Ta'lim va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari ishlab chiqarish, biznes va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritib, talabalarning o'qish jarayonidayoq amaliyot o'tashi, real ish muhitini his qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bu bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyor holda kirib kelishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy himoya va imkoniyatlarni kengaytirish ham islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Talabalar uchun qulay ta'lim muhiti yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, ijtimoiy ehtiyojmand yoshlarga keng imkoniyatlar berish orqali ta'limda tenglik va adolatga erishiladi.


Shuningdek, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi ta'lim sifatiga berilgan asosiy baho mezoniga aylanmoqda. Endi universitet faoliyati faqat diplom berish bilan emas, balki uning bitiruvchilarni qay darajada hayotda o'z o'rnini topayotganini bilan baholanadi. Bu esa oliy ta'lim tizimini yanada mas'uliyatli, natijaga yo'naltirilgan va hayot bilan uzviy bog'langan tizimga aylantiradi. Eng muhimi, bunday yondashuv orqali bilimni, raqobatbardosh va zamon talablariga javob beradigan yangi avlod shakllanadi.

Bugun boshlangan islohotlar mohiyatiga ko'ra faqat bir sohadagi o'zgarishlar emas, balki mamlakatimiz taraqqiyotining uzoq muddatli yo'nalishini belgilab beruvchi muhim strategik qadamdir. Chunki oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimi har qanday davlatning intellektual salohiyati, iqtisodiy qudrati va kelajak taraqqiyotini belgilaydigan asosiy ustunlardan biridir.

Amalga oshirilayotgan eng qamrovli islohotlar natijasida yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi mazmunan va mohiyatan yangi qiyofaga kirmoqda. U raqobatbardoshligi bilan ajralib turadigan, innovatsiyalarni yaratish va joriy etishga qodir, xalqaro maydonda munosib o'rin egallay oladigan tizimga aylanib bormoqda. Universitetlar faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi zamonaviy intellektual markaz ko'rinishini olmoqda.

Asosiysi, bu islohotlar orqali inson kapitaliga e'tibor mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ularning bilim olishi, izlanishi va o'z salohiyatini ro'yog'ga chiqarishi uchun mustahkam zamin yaratilayapti. Ana shu jarayonlar natijasida bilimni, tashabbuskor, zamonaviy fikrlaydigan va global raqobatga tayyor yangi avlod shakllanadi.

Aynan shunday avlod mamlakatimizning ertangi kuni, uning barqaror taraqqiyoti va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatining eng ishonchli kafolatidir.





Taraqqiyot odimlari

Mis dunyoda eng ko'p ishlatiladigan metallardan. Yuqori issiqlik va elektr o'tkazuvchanligi sabab sanoatning deyarli barcha tarmog'ida ishlatiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda jahonda rivojlanib borayotgan energetika, elektrotexnika, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt kabi zamonaviy sohalar, qolaversa, "yashil" taraqqiyot uchun muhim strategik xomashyoga aylangan. Birgina elektromobil sohasini olsak, ushbu tarmoqning jadal rivojlanishi dunyo sanoatida misga talabni bir necha barobar oshirmoqda. Chunki elektromobillarning 90 foiz ehtiyot qismi misdan ishlanadi.



QAYTA ISHLANGAN MIS

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA asosiy xomashyo

O'zbekiston mis xomashyosiga boy. Mamlakatimiz tog'-kon sanoatida mis qazib olish ko'rsatkichi ancha yuqori bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rinlarda. Ayniqsa, oxirgi o'n yilda mis ishlab chiqarish ko'rsatkichi sezilarli o'sdi. Bu shunchaki konlarni doimiy qazish bilan amalga oshadigan ish emas. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi tog'-kon sanoatida ishga tushirilayotgan yirik loyihalarni, sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, konlarni investorlarga berish, yangi konlarni o'zlashtirib, ularda eng zamonaviy texnologiyalarni qo'llash hisobiga aniq natijalarga erishilayapti. O'tgan yillarda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 1,7 barobar o'sgani buning tasdiqi. Yuqori daromadli eng ko'p ish o'rni ham ayni shu sohadagi tarmoqlarda ochilmoqda.

2030-yilga qadar O'zbekistonda mis ishlab chiqarish hajmini 500 ming tonnaga yetkazish maqsadi ham o'z-o'zidan belgilanmagan. Buning uchun quvvatlar chamalanib, imkoniyatlar tahlil qilingan. Masalan, 75 yildan ko'proq tarixga ega Olmalik kon-metallurgiya kombinatidagi loyihalarning o'ziyiq ko'lami anchagina oshiradi. Kombinatsion asosiy mahsuloti mis bo'lib, mis katodlarini yillik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha MDH davlatlari orasida 3 o'rinni egallaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, kombinat tarkibidagi "Yoshlik-1" va "Qalmoqqir" konlarida 45 million tonna mis, 5000 tonnadan ziyod oltin zaxirasi mavjud. Ular sanoatga kamida 100 yilga yetadigan kafolati xomashyo bazasi bo'la oladi.

Ammo xomashyoni qazib olish bir masala bo'lsa, uni qayta ishlab, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish olish navbatidagi dovondir. O'zbekiston bu dovonnii muvaffaqiyatli bosib o'tmoqda. Gap shundaki, mamlakatimizda ilgari aksariyat qimmatbaho va rangli metallar kabi mis ham faqat xomashyo holatida eksport qilingan. Bugun mahsulotni qayta ishlab, tayyor tovarga aylantirish, mahalliy sanoat tarmoqlarida keng qo'llash ko'rsatkichi ancha baland. Hozir yiliga 100 ming tonna mis yurtimizda qayta ishlanib, yuqori qiymatli mahsulotga aylantirilmoqda.

Bu milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlarida misdan foydalanish holda mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarilayotgan degani. Joriy yilda ishga tushiriladigan yangi loyihalar hisobiga

yurtimizda misni chuqur qayta ishlash quvvati 240 ming tonnaga yetishi kutilyapti. Yaqin ikki-uch yilda esa bu ko'rsatkich yanada oshadi.

Yirik loyihalardan biri allaqachon ishga tushirildi. Joriy yil 16-mart kuni mamlakatimiz iqtisodiyoti va tog'-kon sanoatidagi tarixiy sanaga aylandi — davlatimiz rahbari ishtirokida Olmalik kon-metallurgiya kombinatsion 3-mis boyitish fabrikasi ochildi. 196 gektar maydonda amalga oshirilayotgan loyihaning umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarga teng. Yangi fabrika kombinatdagi "Yoshlik-1" konini o'zlashtirish dasturining bir qismi bo'lib, unda yiliga 600 million tonna ma'dan qayta ishlanib, 900 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqariladi. Fabrika to'liq ishga tushgach, Olmalik kombinatida mis konsentratining kunlik hajmi hozirgi 2400 tonnadan 5000 tonnaga yetadi.

Bundan besh-olti yil ilgari bir guruh OAV xodimlari bilan birga Olmalik kon-metallurgiya kombinatida bo'lib, 3-mis boyitish fabrikasi qurilishiga guvoh bo'lganimiz yodimda. O'shandayoq mazkur gigant loyiha mamlakatimiz sanoatida katta voqea bo'lishi kutilgandi. Boisi, u nihoyatda katta quvvatdagi rudani qayta ishlashga qaratilgan ulkan zamonaviy majmua bo'lish barobarida rangli

Masalan, qazib olingan ruda mis boyitish fabrikasiga yuboriladi. Bu yerda metall boyitish jarayonidan o'tib, undan konsentrat olinadi. Ya'ni ruda maydalanib, qo'shimcha reagentlar qo'shish orqali boyitiladi va cho'kma hosil qilinadi. Hosil bo'lgan mis konsentratini mis eritish zavodiga yuboriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, kombinatda qiymati 2,5 milliard dollarlik yangi mis eritish zavodini barpo etish bo'yicha ishlar boshlangan.

Elektr tokini eng yaxshi o'tkazuvchi

Ana endi masalaning ikkinchi muhim jihatiga o'tsak. Bu jahonda talab ortib borayotgan mis rudasidan mahalliy sharoitda foydalanish bilan bog'liq. Ya'ni, mis xomashyosini ishlab chiqarish va chuqur qayta ishlash nafaqat yurtimiz tog'-kon sanoati, balki ko'plab sanoat tarmoqlari rivojiga xizmat qiladi. Energetika, elektrotexnika, "yashil" texnologiyalar, umuman, ishlab chiqarish jarayonida bevosita mis xomashyosiga zarurat bo'lgan barcha soha uchun barqaror va sifatli xomashyo bazasi yaratiladi. Ushbu sohalar esa keyingi



va qimmatbaho metallarni qazib olishdan to qayta ishlab, eksport qilishgacha jarayonni umumlashtirib, qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan harakatlarning katta qismidir.

yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy drayverlariga aylangan.

Aslida, tabiatiga ko'ra mis yumshoq, cho'ziluvchan, bug'lanuvchan metall. Undan



foydalanish uchun maxsus ishlov berilib, konsentratga aylantirish zarur. Mis konsentratini metallurgiya zavodlarida xomaki mis va keyinchalik toza mis katodlarini ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo bo'ladi. Mis katodlari esa yuqori sifatli toza mis plitalari bo'lib, elektr sanoati, kabel ishlab chiqarish, mashinasozlik va qurilishda asosiy xomashyo sifatida qo'llanadi.

Ayrim sanoat tarmoqlarini mis xomashyosiz tasavvur qilish qiyin. Oddiy qilib tushuntirganda, biz har kuni duch keladiganimiz va foydalanadiganimiz elektr simlari o'rnatilgan hamda elektr tokida ishlaydigan hamma ashyo mis xomashyosiga asosida ishlab chiqariladi. Demak, ushbu xomashyo bazasiga talabning mahalliy sharoitda to'liq qondirilishi ko'plab sanoat tarmoqlarida arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'l ochadi.

Hozir mamlakatimizda elektrotexnika sanoati rivojining muayyan qismi shu bilan bog'liq desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu sanoatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aksariyati to'liq mahalliy ishlab chiqariladi. Hatto, elektromobil o'zimizda ishlab chiqarilayapti. — Bugun dunyo sanoatida zamonaviy

yo'nalishlar rivojlanayotgani va aksariyati "yashil" texnologiyalar bilan bog'liqligi mis xomashyosiga talabni keskin oshirgan, — deydi "O'zeltexsanoat" uyushmasi raisi Mirziyod Yunusov. — Bu sohalar bevosita elektrotexnika sanoati rivoji bilan ham bog'lanadi. Masalan, keyingi yillarda O'zbekiston "yashil" energetikani rivojlantirish bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlar qatoriga kirib bormoqda. Ushbu yo'nalishdagi loyihalar ko'lami yil sayin kengayib boryapti. Hozir yurtimiz bo'yab 15 ta quyosh fotoelektr stansiyasi, 5 ta shamol elektr stansiyasi faol ishlab turibdi. Joriy yilda mamlakatimizda yana 2 gigavatt quvvatga ega "yashil" energiya manbalarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Ularga juda ko'p kabel, generator, inverter, transformatorlar zarur. Shu bois, ushbu mahsulotlar xalqaro standartlar asosida mahalliy ishlab chiqarilayapti. Bugun alyuminiy ramka, DC kabel, metall konstruksiya, ichki va tashqi baklar, penopoliretan quyish, mis trubka qismlari to'liq mahalliy ishlab chiqariladi.

O'tgan yili yurtimizda 35 trillion so'mlik elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu 2023-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobar o'sishni anglatadi. Elektr dvigatellar, lift va eskalatorlar, sanoat sovutish tizimlari, elektron plitalar, quyosh panellari, suv nasoslari va isitish uskunalari kabi yangi mahsulotlar o'zlashtirildi. Ko'plab turdagi elektrotexnika mahsulotlarining yurtimizda ishlab chiqarilayotgani mis xomashyosiga talabni yaqqol ko'rsatadi. Chunki tarmoqda foydalaniladigan asosiy xomashyo mis ekani sir emas. Birgina misol: o'tgan yili

ishlash orqali yuqori qiymat zanjirini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Ayniqsa, fabrikada zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt elementlarining joriy etilgani bugungi ishlohotlar sanoatini yangi bosqichga olib chiqarayotgan dalolat. Hozir ichki va tashqi bozorda mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab yuqori. Ya'ni arzon va sifatli mahalliy mahsulot ishlab chiqara olgan davlatlar jahon bozorida ustunlikka erishmoqda. Mamlakatimiz elektrotexnika sanoati keyingi yillarda misli ko'rilgan darajada rivojlanishi ortida ham mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab yuqori. Biz ichki imkoniyatlarimizdan to'la foydalana boshladik. Xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirishga o'tdik. To'g'ri, bu juda katta xarajat va sa'y-harakatni talab qiladi, ammo natija ham shunga yarasha.

Bugun O'zbekiston sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eng rivojlangan davlatlar bozoriga kirib boryapti. Ayniqsa, milliy brenddagi elektrotexnika mahsulotlariga jahon bozorida talab yuqori.

Mazkur korxonada ishlab chiqariladigan mis quvur va fitinglarning asosiy xomashyosi mis. Avvallari bu turdagi mahsulotlar yurtimizga asosan Yevropa davlatlari va Xitoydan import qilingan. Hozir esa mahalliy tadbirkor ichki bozorni to'liq ta'minlash barobarida mahsulotlarning katta qismini Yevropa va MDH davlatlariga eksport qilayapti.

Korxonada o'rta ta'lim ishlab chiqarish zavodi bo'lib, ulardan biri shu yil mart oyida Ohangon tashkiloti texnoparkda ish boshladi. Loyihaning birinchi bosqichida 35 ming tonna mis quvur va fitinglar ishlab chiqariladi. Yakuniy uchinchi bosqichda bu hajm 70 ming tonnaga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Zavod to'liq ishga tushgach, yiliga import o'rni mis quvur 10 million dollarlik mahsulot ishlab chiqariladi.

Buning uchun katta miqdorda mis xomashyosi zarur. Ayni paytda ushbu xomashyoga ehtiyoj mahalliy sharoitda qondirilishi tadbirkorlarni mamnun etmoqda. Boisi, barqaror xomashyo ta'minoti mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi turdagi mahsulotlar tayyorlash imkonini beradi.

Elektromobillarni muvaffaqiyatli stansiyalarini ishlab chiqarishda ancha-muncha mis kerak. Bu turdagi mahsulotlar ham yurtimizda ishlab chiqariladi. Mamlakatimiz sanoat tarmoqlarining rivoji eng murakkab turdagi uskunalarni ham mahalliy ishlab chiqarishga zamin yaratadi.

Toshkent shahridagi "Toshelektroapparat" MCHJ xorijiy korxonasida 2019-yildan buyon elektromobillarni quvvatlash stansiyalari ishlab chiqarilmoqda. Qolaversa, zavod elektr montaj qurilmalari, podstansiyalar, stansiyalar, transformatorlar, quyosh panellari, inverterlar, past kuchlanishli elektr dvigatellari uchun chastotani nazorat qilish moslamalari, ko'cha yoritqichlari va elektr hisoblagichlar ham tayyorlab beradi. Bu yerda misdan asosan transformator, podstansiyalar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Umuman, Olmalik kon-metallurgiya kombinatida ishga tushirilgan yangi 3-mis boyitish fabrikasi bu shunchaki sanoat quvvati emas, balki katta-kichik tarmoqlar uchun muhim mahalliy xomashyo manbai. Bu xomashyoga talab katta bo'lgan Chirchiq transformator zavodi, "Toshelektroapparat", "O'zlektroapparat-Electroshield" kabi korxonalar uchun ishlab chiqarish quvvatini yanada oshirish imkoniyatidir. Chunki ushbu zavodlarda ishlab chiqariladigan transformator, podstansiyalarning asosiy qismi misdan iborat. Ularni ishlab chiqarish va eksport qilishda uzilish bo'lmasligi uchun ham ko'proq xomashyoga zarurat mavjud. 3-mis boyitish fabrikasi ana shu mahalliy ehtiyojni qondirish quvvatiga ega.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar



Qobiljon TURSUNOV,
senator

Kuni kecha Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor mamlakatimizda qurilish va urbanizatsiya sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim siyosiy-iqtisodiy signal bo'ldi. Yig'ilishda erishilgan yutuqlar sarhisob qilinishi barobarida sohada to'planib qolgan tizimli muammolar ochiq muhokama qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

So'nggi yillarda qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotining drayverlaridan biriga aylangan shubhasiz. Raqamlar buni yaqqol isbotlab turibdi. Minglab yangi korxonalar, yuzlab yirik kompaniyalar, millionlab kvadrat metr uy-joylar — bularning barchasi ishlohotlarning amaliy samarasidir. Eng muhimi, bu jarayon millionlab odamlarning baxtini ta'minlab, iqtisodiyotda multiplikativ ta'sir yaratmoqda.

Biroq yig'ilishda qayd etilganidek, erishilgan natijalar bilan cheklanib qolish mumkin emas. Qurilishni boshlash bosqichidagi ortiqcha byurokratik to'siqlar, yer ajratish va ruxsat berish jarayonidagi sun'iy kechikishlar, bosh rejalarning yetishmasligi kabi muammolar tadbirkorlik faolligini sekinlashtirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbari ilgari surgan asosiy yondashuv — raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish orqali tizimni shaffof va samarali qilish imkonini mavjud. Yer ajratish, qurilishga ruxsat berish, kommunikatsiyalarga ulanish kabi jarayonlarni qisqa muddatda onlayn amalga oshirish vazifasi aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu esa korruptsiya xavfini kamaytirish, vaqt va resurslarni tejash orqali tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratishda g'oyat muhim.

Yig'ilishda urbanizatsiya masalasiga alohida e'tibor qaratilgani ham bejiz emas. Bugun aholining yarmidan ko'pi shaharlarda yashamoqda va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Urbanizatsiya faqat aholi joylashuvi emas, balki iqtisodiy faollik, innovatsiya va investitsiyalarning markazlashuvidir. Demak,

QURILISH VA URBANIZATSIYA



IQTISODIYOTNING STRATEGIK TAYANCHI

uni rejalari va barqaror rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

Bu borada bosh va master rejalarning ahamiyati beqiyos. Chunki har bir hududning kelajagi aynan shu hujjatlarida belgilanadi. Yig'ilishda ushbu hujjatlarini ishlab chiqish va ijro etishdagi kamchiliklar tanqid qilinib, aniq muddat va vazifalar belgilab berilgani sohada tartib-intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat, yer va obyektlarni

“

Qurilishni boshlash bosqichidagi ortiqcha byurokratik to'siqlar, yer ajratish va ruxsat berish jarayonidagi sun'iy kechikishlar, bosh rejalarning yetishmasligi kabi muammolar tadbirkorlik faolligini sekinlashtirmoqda.

iqtisodiy faoliyatga jalb etish samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Aukcion orqali sotilgan yerlarda qurilish boshlanmasligi yoki obyektlarning sotilmay qolishi resurslardan samarasiz foydalanilayotganini ko'rsatadi. Endi bu jarayonda mahalliy hokimliklarning mas'uliyati oshirilishi hududiy rivojlanishga yangi turtki beradi.

Qurilish sifati va nazorat masalalariga qaratilayotgan e'tibor ham dolzarb. Zamonaviy shaharsozlikda sifat faqat estetika emas, balki xavfsizlik, barqarorlik va uzoq muddatli rivojlanish garovidir. Shu bois, nazorat tizimini kuchaytirish, mas'ullarning javobgarligini oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, mazkur yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar qurilish va urbanizatsiya sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan kompleks dastur sifatida baholanishi mumkin. Bu ishlohotlar yangi uy-joylar qurish bilan birga zamonaviy, qulay va barqaror shahar muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bu jarayonlar inson manfaatlari yo'naltirilishi kerak. Chunki qurilgan har bir uy, barpo etilgan har bir infratuzilma, avvalo, aholining hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Mulohaza

Bugun O'zbekiston yangilanish va yuksalish yo'lida eng ulkan demografik dividend — yoshlarga hal qiluvchi kuch va asosiy tayanch o'laroq qaramoqda. Mamlakat aholisining yarmidan ko'pini tashkil etayotgan navqiron avlod vakillariga nisbatan endilikda shunchaki "kelajak egalari" deb emas, balki ayni bugunning o'zidayoq iqtisodiy, ijtimoiy va intellektual o'sishning asosiy drayveri, jamiyatdagi yangilanishlarning lokomotivi sifatida munosabat shakllandi.



YOSHLAR – BUGUNNING KUCHI, ERTANING EGASI



Ozoda RAUFOVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

zamonaviy biznes inkubatorlar va AT parklar tashkil etilishi — bularning barchasi yigit-qizlarning g'oyalari real iqtisodiy quvvatga, mamlakat yalpi ichki mahsulotini yuksaltiruvchi kuchga aylantiradi. "Kelajak tadbirkori" yangi umummilliy dasturi yoshlar uchun nafaqat dastlabki sarmoya, balki kuchli motivatsiya va mustahkam ishonch manbai bo'lishi bilan

Moddiy taraqqiyot ma'naviy yuksalish bilan uyg'un bo'lgandagina ko'zlangan natijaga erishilishi mumkinligi qayd etilib, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kitobxonlik madaniyatini umummilliy darajaga olib chiqish, yosh ijodkor va oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, milliy merosimiz va jahon adabiyoti durdonalarini



g'oyat ahamiyatli. Mazkur dastur mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning o'z biznesini noldan boshlashi, mavjudlarini kengaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratishi hamda barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun haqiqiy "ijtimoiy lift" vazifasini o'taydi.

Ayni damda yangi O'zbekiston yoshlari faqatgina iqtisodiy jarayonlar ishtirokchisi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faollarning o'zigidir. Volontyorlik harakati keng qamrovli bo'lgan, yoshlar o'rtasida ekologik, ijtimoiy va madaniy yo'nalishlarda fuqarolik tashabbuslari ortib borayotgani jamiyatimizda "Bu mening vatanim, uning taqdiri uchun men mas'ulman!" degan yangicha tafakkur hamda yuksak daxldorlik hissi shakllanganidan dalolat beradi.

keng targ'ib qilishga qaratilgan tashabbuslar kelajak avlodning intellektual va ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Bugun qaddini tik tutgan, ko'zlarida o't chaqnaq turgan O'zbekiston yoshlariga qarab qat'iy va ishonch bilan aytish mumkinki, ular faqatgina buyuk kelajakni orzu qiluvchi romantiklar emas, balki shu kelajakni o'z aql-zakovati va mehnati bilan qurishga qodir bo'lgan pragmatik va yaratuvchan avloddir.

Eng muhimi, buyuk maqsadlar yo'lida yoshlar yolg'iz emas. Ularning ortida tog'dek tayanch bo'lib turgan qudratli davlat, yaratilgan keshsiz imkoniyatlar va davlat rahbari bildirayotgan yuksak ishonch bor.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya va tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida bu masalaga yanada chuqur hamda tizimli yondashuv belgilab berildi.

Munosabat



SOG'LOM MILLAT POYDEVORI

Sport nafaqat jismoniy faollik, balki millat salomatligi, yoshlar tarbiyasi va mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etildi. Ayniqsa, tibbiyot sohasi nuqtayi nazaridan qaraganda, sportning ahamiyati beqiyos. Chunki har qanday sog'lom jamiyat, avvalo, sog'lom insonlardan shakllanadi. Zamonaviy tibbiyot amaliyoti kasalliklarni davolashdan ko'ra, oldini olish samarali va maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Bu esa bevosita jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq. Shu ma'noda, yig'ilishda ilgari surilgan "sport orqali profilaktika" tamoyili tibbiyot tizimi uchun ham dolzarb vazifalarni belgilab berdi.



Madamin MADAZIMOV, Andijon davlat tibbiyot instituti rektori, professor

shunchaki darsdan tashqari mashg'ulot emas, balki bo'lajak shifokorning hayot tarzi, kasbiy madaniyati va shaxsiy namunasidir. Chunki shifokor, avvalo, o'zi sog'lom turmush kechirmasa, boshqalarga bu boradagi targ'iboti ham samarali bo'lmaydi.


Institutimizda har bir talabning jismoniy holatini muntazam monitoring qilish, individual sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa kelgusida profilaktik tibbiyotni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat, yoshlar va yurtdoshlarimizni sport orqali ijtimoiy faollikka jalb etishdir. Shu maqsadda viloyatimizning chekka hududlarida o'tkazilayotgan tibbiy ko'riklarda aholiga sportning salomatlikdagi ahamiyati, u bilan muntazam shug'ullanib borish zarurligi haqida tushuntirish berilmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, talabalarimizning faolligi alohida e'tirofga munosib. Ushbu sa'y-harakatlar aholi salomatligini yaxshilash barobarida talabalarda mas'uliyat, rahbarlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantiradi.

Viloyatimizdagi davlat oliy ta'lim muassasalarini rahbarlarining "Andijon talabalar ligasi"ni tashkil etishga doir memorandumini imzolagan ham ushbu sa'y-harakatlarning amaliy ifodasidir. Bu tashabbus orqali talabalar o'rtasida sport musobaqalarini tizimli o'tkazish, iqtidorli yoshlarni saralash va qo'llab-quvvatlash imkoniyati yanada kengayadi.

Bugun sportni alohida sohadagi faoliyat emas, balki tibbiyot, ta'lim va jamiyat hayoti bilan uzviy bog'liq kompleks tizim sifatida qabul qilish vaqti keldi. Chunki sog'lom millat kuchli davlat demakdir.

Andijon davlat tibbiyot instituti jamoasi bu vazifalarni chuqur anglagan holda, nafaqat malakali mutaxassislar, balki jismonan baqovvat, ma'nan yetuk va sog'lom turmush tarziga sodiq avlodni tarbiyalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yg'an.



Yana bir muhim jihat, yoshlar va yurtdoshlarimizni sport orqali ijtimoiy faollikka jalb etishdir. Shu maqsadda viloyatimizning chekka hududlarida o'tkazilayotgan tibbiy ko'riklarda aholiga sportning salomatlikdagi ahamiyati, u bilan muntazam shug'ullanib borish zarurligi haqida tushuntirish berilmoqda.

Ijtimoiy himoya



Lazizjon NURIDDINOV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi mas'ul xodimi

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ijtimoiy himoya tizimi insonga yo'naltirilgan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu nimalarda namoyon bo'lmoqda? Masalan, ilgari ijtimoiy xizmatlar asosan institutsional shaklda internatlar, maxsus muassasalar va doimiy parvarish uylarida ko'rsatilgan bo'lsa, endi insonni o'zi yashaydigan muhitda qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar tasodifiy emas, albatta. Ular demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan tizimli evolyutsiya natijasi.

Aholining qarishi davlatlar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Masalan, Yevropa

Ittifoqi davlatlarida 65 yoshdan oshgan aholi ulushi 20 foizdan ko'p va bu ko'rsatkich yil sayin o'sib bormoqda. Yaponiyada esa bu raqam 28 foizdan yuqori. Bunday sharoitda barcha ehtiyojmandni internatlariga joylashtirish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan maqbul yechim emas. Shu sababli dastlab Skandinaviya davlatlari, keyinchalik Germaniya, Fransiya va Yaponiyada uy sharoitida xizmat ko'rsatish tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi.

Mazkur modelning asosiy g'oyasi juda oddiy, ammo chuqur ma'noga ega. Unga ko'ra, inson qayerda yashashni istasa, o'sha yerda munosib hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Ushbu model inson huquqlarini ta'minlashning muhim ko'rsatkichidir. Chunki odam uyida, tanish muhitda o'zini xavfsiz, erkin va qadrlis his qiladi. Shu bilan birga, u o'zining ijtimoiy aloqalarini saqlab qoladi. Bu esa ruhiy barqarorlik va hayot sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ham ijtimoiy himoya tizimida ushbu zamonaviy yondashuv izchil joriy etilmoqda. Davlat siyosati markazida inson qadrini ulug'lash g'oyasi turgan sharoitda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga xizmat ko'rsatishda yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish xizmati ana shu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida shakllandi.

Bu xizmat o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ularga bevosita yashash joyida kompleks xizmat ko'rsatishni nazarda tutadi. Bu yerda "kompleks yondashuv" tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Chunki insonning ehtiyojlari faqat maishiy yumushlar bilan cheklanmaydi. U bir vaqtning o'zida psixologik, ijtimoiy va funksional ko'makka ham muhtoj bo'lishi mumkin. Xizmat tarkibiga kiruvchi vazifalar

UY SHAROITIDAGI XIZMATLAR

Maqsudaxon opaning hayotini o'zgartirgan ish tutumi haqida



Uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish xizmati insonga munosabat o'zgartirganini ko'rsatuvchi muhim mezon. Yangi xizmat modeli orqali jamiyatda g'amxo'rlik, mas'uliyat va inson qadriga hurmat yanada mustahkamlanadi.

kundalik hayot uchun eng zarur ehtiyojlarni qamrab oladi.

Ovqat tayyorlash, uyni tozalash, kiyim-kechaklarni yuvish kabi ishlar insonning asosiy maishiy ehtiyojlariga qaratilgan bo'lsa, gigiyena tadbirlarini amalga oshirish salomatlik va shaxsiy parvarishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tibbiyot muassasalariga hamrohlik xizmati orqali fuqarolarning tibbiy xizmatlardan to'liq

sharoit yaratiladi. Mazkur xizmatning eng muhim innovatsion jihatlaridan biri tyutorlik elementidir. Bu yo'nalish orqali fuqarolarga o'ziga o'zi xizmat qilish ko'nikmalari o'rgatiladi, raqamli texnologiyalardan foydalanishga yo'naltiriladi. Misol uchun, onlayn davlat xizmatlaridan foydalanish, elektron kitoblar o'qib, zamonaviy gadjetlar bilan ishlash kabi ko'nikmalar insonning mustaqilligini oshiradi.

Mamlakatimizda uy sharoitida 17 ming 897 ta ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatilgani qayd etilgan. Bu ko'rsatkich mazkur xizmat tizimi aholi orasida talab yuqori ekanini hamda tizim amalda faol ishlayotganini anglatadi.

Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyatida qayd etilgan. Uy sharoitida ijtimoiy-maishiy xizmatlar keksalar uchun nafaqat yordam, balki hayot sifatini saqlab qolishning muhim vositasidir.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayoni tizimli va rejalashtirilgan tashkil etiladi. Har bir foydalanuvchi uchun alohida reja-grafik ishlab chiqilib, unga mas'ul ijtimoiy xodim birkiritiladi.

Ana shunday tizimli yondashuvning amaldagi natijasini Yangiqo'rg'on tumanida yashovchi Maqsudaxon Bekmatova misolida ko'rish mumkin. U jarrohlik amaliyotidan so'ng og'ir holatga tushib, mustaqil harakatlanolmas, doimiy parvarishga muhtoj edi. Yolg'iz yashashi esa uning ahvolini yanada murakkablashtirgan. Shu sababli unga uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam xizmati manzilli tarzda ko'rsatildi.

Reja-grafik asosida birkiritilgan ijtimoiy xodim ko'rsatgan muntazam xizmatlar natijasida Maqsudaxon opaning hayotida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, u bilan doimiy muloqot o'rnatilib, parvarish ishlari tizimli yo'lga qo'yildi. Jismoniy mashqlar orqali faolligi bosqichma-bosqich tiklandi. Bu esa uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Natijada Maqsudaxon opa asta-sekin o'ziga o'zi xizmat qilish qobiliyatini tiklab, kundalik harakatlarni mustaqil bajarib olish darajasiga

yeta boshladi. Eng muhimi, u o'z uyida, o'z muhitida munosib va barqaror hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa uy sharoitida ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning inson taqdirida qanday ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etadi.

Bunday natijalarga erishishda xizmatlarning nafaqat manzilli, balki aniq tartibga solingan va shaffof tashkil etilgani ham muhim. Shu bilan birga, tizimda belgilangan tartibga muvofiq, agar fuqaro ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi yoki "Muruvvat" internat-uyiga vaqtincha joylashtirilsa yoxud sanatoriy va davolash muassasasida bo'lsa, mazkur davrda uy sharoitidagi xizmat ko'rsatish to'xtatiladi. Bu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish va xizmatlarni haqiqiy ehtiyoj mavjud bo'lgan holatlarda ko'rsatish imkonini beradi.

Keksalar inson uchun eng katta qadriyat uning uyi, xotinalari va odatiy muhitidir. Ushbu xizmat orqali ular o'z uyini tark etmay turib, zarur barcha yordamni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, mazkur xizmat ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi.

Yana bir jihat shuki, ijtimoiy xizmat oila yukini yengillashtiradi. Ko'p hollarda qariyalarga g'amxo'rlik qilish vazifasi oila a'zolari zimmasiga tushadi. Uy sharoitida ijtimoiy xizmatlar orqali ushbu yuk qisman davlat va jamiyat tomonidan qoplanadi. Bu esa oilalar uchun katta yengillikdir.

Xizmat samaradorligini baholash mexanizmlari joriy etilgani ham uning zamonaviylikni ko'rsatadi. Foydalanuvchining qoniqish darajasi, shikoyatlar mavjudligi va uy holatining baholanishi orqali xizmat sifati muntazam monitoring qilinadi. Bu esa tizimni doimiy takomillashtirishga hissa qo'shadi.

Uy sharoitida ijtimoiy-maishiy yordam ko'rsatish xizmati insonga munosabat o'zgartirganini ko'rsatuvchi muhim mezon. Yangi xizmat modeli orqali jamiyatda g'amxo'rlik, mas'uliyat va inson qadriga hurmat yanada mustahkamlanadi. Eng muhimi, har bir inson o'z uyida, o'z muhitida munosib hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amir Temur tavalludining 690 yilligi



Dildagi gaplar

FARMONDAN INSONGACHA BO'LGAN MASOFA

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEI

MOZIYNI ANGLAYDIGAN, QAYTA HIS ETADIGAN VA TAHLIL QILADIGAN INTELLEKTUAL PLATFORMA

Mansur MUSAYEV, siyosiy fanlar doktori, professor

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg'onish davri — temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o'rin tutadi. Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi — Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va tamaddudidagi o'rni, temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o'rganish, yurtimiz hamda chet ellarda keng ommalashtirishda Temuriylar tarixi davlat muzeyining o'ziga xos o'rni bor.

Amir Temur xiyobonida joylashgan mazkur muzey tashkil topgan kundan boshlab bu muazzam koshonaga juda ko'p borganman. Bu yerda Sohibqironning milliy davlatchiligimiz tarixida qoldirgan o'chmas o'rni, xalqimizning ilm-fan va madaniyatini yuksaltirish borasidagi islohotlari, tashabbuslari, tarixiy merosiga oid qator eksponatlarini tomosha qilganman. Har safar ulug' bobomiz qoldirgan meros bilan tanishar ekanman, bu muzey Sohibqiron salobati, qudratiga mos emasdek taassurot qoldirgan.

To'g'risi, bunday boy tarixni butun bo'y-basti bilan jozibador talqinda yetkaza olmasligimiz menga alam qilar, bu hol milliy brend sifatidagi tarixiy merosimiz imkoniyatlarini cheklab qo'yayotgani ham og'riqli edi.

Davlatimiz rahbari tashabbusidan so'ng muzeyga yangi hayot qaytganday bo'ldi. Zero, temuriylar Renessansi mamlakatimizda yangi uyg'onish poydevorini qurishda xalqimiz uchun ishonch, ilhom va kuch-g'ayrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi talab faqat xotirani asrash emas, balki uni zamonaviy taraqqiyot strategiyasiga aylantirishdir. Tan olish kerak, Temuriylar tarixi davlat muzeyi uzoq yillar davomida global industriya bilan raqobat qiladigan darajada bo'lmadi. Qolaversa, xorijlik sayyohlar uchun jahon standartlariga to'la javob beradigan tarixni his qilish, anglash imkonini beruvchi muhit yetishmasdi.

Joriy yil 9-aprel kuni Prezidentimizning Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi rekonstruksiya ishlari bilan tanishuv jarayoni muzey tarixida burilish nuqtasiga aylandi.

Yangilangan muzeyga endilikda eksponatlar joylashgan makon sifatida qarash falsafasi o'zgaradi. Sun'iy intellekta integratsiyalashgan tizimlar xuddi tarix tirilib kelganday taassurot uyg'otadi. Muzey muhojiri anglash, uni qayta his etish va tahlil qilish mumkin bo'lgan intellektual platformaga aylantirildi.

Bugun bizda Amir Temur an'analari izchil davom etmoqda. Xususan, mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi tur islohotlar Sohibqiron bobomizning tutumlariga juda mos.

Davlatimiz rahbarining "Temuriylar maktabi" kabi loyihalari, aprel oyini Amir Temur va temuriylar oyligi sifatida o'tkazish tashabbusi tarixni o'tmishigina emas, balki kelajakni qurishda faol resurs o'laroq qabul qilish zarurati deya anglash mumkin. Ayni maqsadda joriy yil

5-fevralda qabul qilingan "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror bu boradagi ishlar



ko'larni kengaytirishga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatini.

Hujjat bilan temuriylar davri tarixini tizimli o'rganish va ilmiy natijalarni keng targ'ib etish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Undan Amir Temur va temuriylar davri tarixi bilan bog'liq turkum kitoblar, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni tayyorlash va chop etish, jumladan, "Temur tuzuklari" asarining ilmiy izohli matnini fors, arab, xitoy, ingliz, fransuz, ispan va rus tillarida chop etish, "Temuriylar davrining 100 nodir qo'lyozmasi", "Temuriylar davrining 100 nodir durdonasi" kitob-albomlarini yaratish va temuriylar davriga oid, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan asl yozma manbalar nusxalarini O'zbekistonga olib kelish kabi qator vazifalar o'rin olgan.

Eng muhimi, qaror bilan dunyodagi mashhur muzeylarning eng ilg'or tajribalarini qo'llagan holda Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini rekonstruksiya qilish, jihozlash, raqamlashtirish va yangi ekspozitsiyasini yaratish belgilangandi.

Bu esa, o'z navbatida, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga qaratilayotgan yuksak e'tiborning yorqin misoli bo'ldi. Muzey ekspozitsiyasi tubdan yangilandi. Konseptual jihatdan yangilangan muzey Prezidentimiz topshiriqlari mahsulidir. Bir paytlar muzeylarga doir eksponatlar qo'ldan ketgani va xorijiy kolleksiyalarni bezagani bor gap. Mamlakatimiz yetakchisi xalqimizning ana shu og'riqlarini his etdi. O'tgan davrda o'n million dollarlik yangi eksponatlar dunyoning yirik muzey va kolleksiyalaridan kimoshdi savdolarida sotib olinib, yurtimizga qaytarildi.

Muzey endi chindan ham barcha uchun qiziqarli maskan, boy tariximizning eng yorqin sahifalarini ko'rsatib beradigan darjaga aylandi.

Bugun yangilangan Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'tmishni anglab, xulosa chiqarish orqali kelajakni shakllantiruvchi fikrlar laboratoriyasiga aylantirildi. Bu yerdagi eksponatlar siz bilan muloqotga kirishadi, savolingizga javob berish bilan birga savol ham beradi, javob talab qiladi.

Toshkentda qad rostlagan muhtasham Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda qaytadan barpo etilgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi tarixiy merosini kompleks o'rganish va targ'ib etishda yangi bosqichni boshlab bergan bo'lsa, yangilangan ushbu muzey bu boradagi ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi. Endilikda muzey an'anaviy maskangina emas, bilimlar iqtisodiyotining bir bo'g'iniga ham aylanyapti desak, to'g'ri bo'ladi. Zotan, bu yerda yaratilgan vizual va raqamli yechimlar tarixni qayta jonlantiradi, tilga kiritadi.

Umuman olganda, yetti asrki, Sohibqiron faoliyati dunyo olimlari e'tibor, markazida. Bugun jahonning 50 dan ortiq mamlakatida temurshunoslar faoliyat yuritmoqda. Yevropada Amir Temur faoliyatiga oid 900 dan, Sharqda esa mingdan ortiq asar yaratilgan. Muzey mazkur ilmiy merosni yanada tizimlashtirib, uni global doirada, yangi formatda taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Munavvara USMONOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Oila muqaddas deymiz. Lekin bu gapni shu qadar ko'p takrorladikki, uning mazmuni ayrim hollarda so'zda qolib ketgandek. Sabr deb qabul qilingan jimlik, fazilatga aylangan chidam, og'riqni yashirishga o'rgatgan tushunchalar yillar davomida ko'plab insonlar taqdirini belgilab keldi. Aslida, adolat faqat qonunlarda emas, inson qalbida yashagandagina haqiqiy kuchga aylanadi.



Bu javobda ishonch bor, lekin hayot haqidagi tasavvurlar xato edi. Qiz sho'rlikdan hech kim so'ragani ham yo'q. Qonun aralashdi, to'y to'xtatildi. Ammo ko'p o'tmay, ular baribir imi-jimida to'y qildi. Jigari xastalangan qizgina yil o'tmay, tug'uruq payti hayotdan ko'z yumdi.

Faqat shundagina ota-ona, qudandalarning ko'zi ochildi. Afsuski, dilbandi vafotidan so'nggina ular tushunib ketdi. Boshlariga mushtladi, ammo endi hech edi. O'z ko'llari bilan ekib, ko'kartirgan gullarini o'zlari ongsizlik ayozlarida so'ldirgan edi.

Bu yerda fojia faqat o'lim emas. Fojia ota-onalar miyasida qotib qolgan majruh

Bugun savol boshqacha qo'yilmoqda: oilani saqlash muhimi yoki insonni asrash? Agar oilani saqlash uchun inson o'zidan kechsa, bu hali ham muqaddaslikmi?

Ana shu savollar jamiyatni bezovta qila boshladi. Aynan shu bezovtalik bosqachga bir o'zgarishlarning boshlanishi, qadriyatning qaddi tiklanishidir.

So'nggi yillarda qabul qilinayotgan qaror va farmonlar shunchaki huquqiy hujjatlar emas. Ular yillar davomida ko'plaming o'z-o'ziga bergan iztirobli savollariga javobdir. Prezidentimizning "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rovonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni ana shu javobning qonunga mujassam bo'lgan, qonunga singdirilgan shaklidir.

Bu farmon oilani himoya qiladi, lekin bu himoya "oila" so'zining o'zini emas, uning tarkibidagi insonlarni ham himoya qiladi. U sabrni qadrlaydi, lekin insonni sindirish darajasigacha emas. U adolati talab qiladi, lekin kechikib keladigan adolati kutib o'tirmoqchi emas. Eng muhimi, u muammoni xaspo'shlashga emas, jamiyat va jamoat e'tiborini unga qaratishga chaqiradi.

Bu fikrlarni tushunish uchun qonun matni bilan birga hayotni ham teran o'rganish kerak. Mazkur farmonda ko'zda tutilgan masalalar haqida o'ylar ekanman, xotiramda bir voqea jonlandi.



Agar yoshlar hurmatni, tenglikni, shaxsiy qadрни tushunib ulg'aysa, ular uchun zo'rovonlik oddiy halga aylantiradi. Darsda ustozning aytgan gapi bir o'quvchi qizning yodiga o'rnashib qoladi: — Hech kim hayotingni sening o'ringga hal qilmasligi kerak. Qonun bor!

Marhamat tumani ijroiya qo'mitasida onalik va bolalikni himoya qilish bo'limida faoliyat yuritardim. Ehtiyoj tug'ildi — bir oilaga bordik. Hovlida "ko'rpa hashari" — qiz uzatishga tayyorlangan avjida. 9-sinfda o'qiydigan voyaga yetmagan qizning nikoh kuni belgilangan.

Qizning onasi savolimizga xotirjam javob berdi: "Nima, o'z bolamga o'zim ega bo'lmay qoldimmi? Yaxshi, boy-badavlat oila so'radi, rozilik berdik. Men ham 16 yoshimda turmushga chiqqanman, o'lganim yo'q. Men tenglarning bolasi hali etagiga yopishib yuribdi. Nasib qilsa, bir yilda nabira ko'raman".



emas. Chunki jamiyat fikri o'zgarmas ekan, har qanday kuchli qonunning ham ta'siri to'liq sezilmaydi.

Mahalla tizimi, ta'lim muassasalari, jamoatchilik bilan ishlash — bularning barchasi bir zanjirning halqalaridir. Chunki zo'rovonlikka qarshi kurashish faqat jazo bilan emas, ezigulikka da'vat etish, tushuntirish va tafakkurni uyg'otish bilan boshlanadi.

Bu — faqat zaruriy hujjat emas, jamiyatga berilgan imkoniyatdir: sukutni parchalash uchun, qo'rqvni yengish uchun, bir so'z bilan aytganda, oilani insonga munosib qilish uchun berilgan imkoniyat.

Bu o'zgarishlar insonlar taqdirida yangi bosqichni boshlab bermoqda. Endi gap faqat muammoni tan olishda emas, balki uni hal qilishga kelib qoldi. Endi gap faqat qonun yaratilishida emas, balki uni ijro etishda, unga jon baxsh etishda, uni tirik qadriyatga aylantirishdadir.

Agar bir ayol o'zini himoyalagan deb his qilsa, demak, qonunlar ishlayapti. Agar bir qiz o'z taqdir yo'lini o'zi tanlay olsa, demak, qonunlar ishlayapti.

Agar bir oilada sukut o'rni muloqot egallasa, demak, qonunlar ishlayapti.

Lekin eng muhim savol hali ham katta so'roq ro'paramizda turibdi: "Biz o'zgarishni faqat qonundan kutamizmi yoki o'zimizdan ham boshlaymizmi?".

Chunki zo'rovonlik doim inson qadri yerga urilganda boshlanadi.

Hayotiy zarur bo'lgan qonun qabul qilinishi — o'zgarishning boshlanishi, xolos. Eng og'ir va eng mas'uliyatli yo'l undan keyin boshlanadi. Chunki har qanday qoida inson taqdirida sinovdan o'tadi.

Shu ma'noda mazkur farmon jamiyat oldiga yangi vazifa qo'yadi: uni o'qish, uqish bilan cheklanmay, tushunish kerak. Faqat eshitish emas, amal qilish kerak.

Yillar sindirmagan bir haqiqat bor: qonun barcha zamonlarda qabul qilinadi. Albatta, uning mavjudligi katta ahamiyatga ega — u asos, u poydevor. Lekin u faqat adolat kuchi bilan tiriklik kasb etadi.

Farmonning keyingi bandlari aynan shu masalaga qaratilgan. Unda hujjat mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish kabi vazifalar belgilangan. Buni shunchaki axborot sifatida qabul qilish yetarli emas. Bu — qarashlarni o'zgartirishga urinish. Chunki jamiyat o'zgarmas ekan, har qanday qonunning kuchi to'liq namoyon bo'lmaydi.

Yillar davomida bir tushuncha bizga singib qolgan: "Oilaviy masalaga aralashilmaydi". Aslida esa ba'zan jamiyatni ham silkitib yuboradigan eng og'ir fojialar aynan shu devor ortiga yashirib kelingan.

Deylik, mahalladagi bir oilaning notinchligini bilamiz. Kunora baqir-chaqir ovozlari eshitamiz. Ayol, bolalarning iztiroblari begona emas. Devorlar nuray boshlansa ham biror qo'shni eshik qoqib: "Hoy, to'xta", deyishga botinmaydi.

Bu farmon ana shu g'ofillik ustidan bong urmoqda. U go'yo jamiyatni ayovsiz so'roqqa tutayotgandek.

— Sen ko'rib turib, nega jimsan? Hujjatda mahalla tizimiga alohida urg'u berilgani bejjiz emas. Chunki muammo birinchi bo'lib mahallada ko'rinadi. Qo'shni biladi. Yaqinlar sezadi. Lekin ko'p hollarda hamma o'zini chegata oladi. Farmon esa bu befarqlik qobig'ini sindiradi.

Endi mahalla kuzatuvchi emas. U himoyachi bo'lishi kerak. Chunki zo'rovonlik ko'pincha yopiq eshiklar ortida sodir bo'ladi. Uni ochish uchun befarqlik emas, jasorat kerak.

Yoshlar bilan ishlash masalasi ham hujjatning eng muhim yo'nalishlaridan biri. Chunki ertangi jamiyat uchun bugungi qarashlar poydevor bo'ladi.

Agar yoshlar hurmatni, tenglikni, shaxsiy qadрни tushunib ulg'aysa, ular uchun zo'rovonlik oddiy halga aylantiradi. Darsda ustozning aytgan gapi bir o'quvchi qizning yodiga o'rnashib qoladi: — Hech kim hayotingni sening o'ringga hal qilmasligi kerak. Qonun bor!

Yillar o'tib, unga erta turmush haqida qaror qabul qilishni taklif etishganida xotirasidagi o'sha fikr uyg'onadi va birinchi marta "Yo'q", deya o'zini, hayotini, kelajagini himoya qiladi. Ba'zan bitta jumla butun bir taqdirni to'g'ri yo'lga solishi mumkin.

Belgilangan imtiyozlar — shunchaki moddiy yordam emas.

Bu ikkinchi imkoniyat. Homilador bo'lgani uchun o'qishdan uzilgan qiz, farzand dunyoga keltirib, ozularidan voz kechgan talaba endi o'sha joyda to'xtab qolmaydi. Uning qayta boshlash imkonini bor. Bu juda muhim.

Farmon esa insonga ana shu qaytish yo'lini ochadi.

"Yo'l xaritasi" — hujjatning eng muhim jihatlaridan biri. Chunki u nima qilish kerakligini emas, faoliyatning aniq vaqti va egasini ko'rsatib beradi. Bu esa yangi bosqich — javobgarlik bosqichining boshlanishidir.

Endi "nima qilish kerak?" degan savoldan "kim javob beradi?" degan savolga o'tiladi. Chunki kechikish ortida bir insonning baxtiga kechikkan taqdiri turishi mumkin. Farmon jamiyat uchun o'zgarishlar olami eshigini ochmoqda. Lekin bu eshik ostonasiga yetib kelishning o'zi yetarli emas. Uni hayot tarziga aylantirish kerak. Bu esa har bir insonning o'zidan, tafakkuri, harakatidan boshlanadi.

Agar mahallada har bir odam aytishdan ko'ra sukutni afzal ko'rmasa, o'zgarish boshlanadi. Agar jurnalist qalami haqiqat tarafga xizmat qila boshlansa, o'zgarish tezlashadi. Lekin eng katta o'zgarish onga, shurda yuz beradi. Chunki jamiyatni faqat qonunlar emas, ularga amal qilishni bilgan insonlar o'zgartiradi. Tafakkuri uyg'og' vijdoni tirik, jasorati bor insonlar o'zgartiradi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446. 30664 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhib: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.